



TURK VA O‘ZBEK TILLARIDA QARINDOSHLIK NOMLARI: QIYOSIY TAHLIL VA LINGVISTIK XUSUSIYATLAR

Maxsudova Dilorom Idrisovna,

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida 1-bosqich mustaqil izlanuvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243828>

Annotatsiya: Mazkur maqolada turk va o‘zbek tillaridagi qarindoshlik atamalarining qiyosiy tahlili o‘rganiladi. Qarindoshlik terminlari lingvistik, sotsiologik va antropologik nuqtai nazardan tahlil qilinib, ularning shakllanishi va rivojlanishi tadqiq etiladi. Tadqiqotda qarindoshlik terminlarining tasniflanishi va ularning ijtimoiy-madaniy ahamiyati muhokama qilinadi. Shuningdek, turkiy xalqlarning tarixiy taraqqiyoti davomida qarindoshlik tizimining o‘zgarish jarayonlari yoritiladi. Ushbu maqola tilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: qarindoshlik, terminologiya, turkiy tillar, qiyosiy tahlil, tilshunoslik, sotsiologiya, antropologiya, madaniyat, tarix, rivojlanish.

Qarindoshlik atamaları butun dunyo bo‘ylab insonlar o‘rtasidagi muloqot vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniy o‘zgarishlarning rivojlanishi jarayonida turk va o‘zbek tillaridagi qarindoshlik atamalarining qiyosiy tahlili yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur atamalar hozirgacha keng ko‘lamda o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning tasniflanishi borasida tadqiqotchilar o‘rtasida yagona yondashuv shakllanmagan. Shu kungacha ushbu masala yuzasidan uch xil nuqtai nazar ilgari surilgan. Birinchi yondashuvga ko‘ra, qarindoshlik atamaları umumlashtiruvchi va tor ma‘nodagi atamalarga ajratiladi. Ikkinchi yondashuv esa qarindoshlik atamaları bilan salomlashish o‘rtasida prinsipial farq mavjud emasligini ta‘kidlaydi. Uchinchi nuqtai nazarga ko‘ra esa salomlashish jarayoni qarindoshlik atamalarining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Zamonaviy olimlar qarindoshlik atamalarini turli fanlar, jumladan, tilshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, madaniyat, antropologiya va etnologiya bilan bog‘liq holda o‘rganmoqdalar. Ijtimoiy tilshunoslik alohida fan sifatida 1960-yillarda Yevropa va Amerikada shakllangan bo‘lib, unda til va muloqot ijtimoiy hayotning muhim omillari sifatida tadqiq etiladi. Ushbu fan doirasida o‘tkazilgan tadqiqotlar bosqichma-bosqich rivojlanib, mikro- va makroaspektlarda ilmiy hamda obyektiv yondashuvlarni shakllantirdi.

Roger Braun va Albert Gilman tomonidan olib borilgan “**Pronouns of Power and Solidarity**” nomli tadqiqot qarindoshlik atamalarini o‘rganishda sezilarli yutuqlarga erishishga xizmat qildi. 1964 yilda esa Margaret Ford Amerika ingliz tilida murojaat shakllari bo‘yicha muhim ilmiy ish e‘lon qilib, ushbu til tizimida



qarindoshlik atamalaridan foydalanish modellarini so‘rov va hujjatli tadqiqotlar orqali chuqur o‘rganib chiqdi.

X. W. Sheffiler esa ilgari deyarli e‘tibordan chetda qolgan qarindoshlik munosabatlarini o‘rganish jarayonida yangi nazariy va uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqdi hamda ingliz tilidagi qarindoshlik atamalarini tadqiq etish uchun sxematik tasniflash usulini taklif qildi. Shu bilan birga, 1979-yildan buyon qarindoshlik atamalariga oid tadqiqotlar yanada boyib, fonografik nashrlarning soni ortib bormoqda.

Turkiy qarindoshlik terminologiyalari antropologlar va tilshunoslar tomonidan turli tadqiqotlarda turkiy-mo‘g‘ul, sibir avlodi, omaxa va boshqa tizimlar sifatida tasniflangan. Biroq, barcha turkiy tillarni qamrab oladigan yagona va o‘zgarmas qarindoshlik tizimini aniqlash mushkul, chunki zamonaviy turkiy qarindoshlik tizimlari nafaqat prototurk yoki qadimgi turkiy tizimning bevosita davomchisi, balki vaqt o‘tishi bilan sezilarli o‘zgarishlarga uchragan.

Mazkur tadqiqot turkiy xalqlarda tarixan shakllangan va hozirgi kungacha yetib kelgan qarindoshlik munosabatlarining o‘zgarishini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, yaxshi tasdiqlangan qarindoshlik atamalari asosida bu jarayonni kuzatishga harakat qiladi. Tadqiqot davomida prototurk tilidan zamonaviy turkiy tillargacha bo‘lgan qarindoshlik tizimidagi transformatsiyalar o‘rganiladi.

Qarindoshlik terminologiyasi lingvistik jihatdan lug‘at tarkibining eng universal qatlamlaridan biri sifatida tan olingan. Barcha tillarda qarindoshlik atamalari mavjudligi sababli, ushbu terminologiya umumiy universal xususiyatga ega deb hisoblanadi. Shu bilan birga, u har bir jamiyatning ijtimoiy, madaniy va tarixiy sharoitlariga bog‘liq holda o‘ziga xos farqlarga ega bo‘ladi.

Jahon ijtimoiy va madaniy jihatdan geterogen tuzilishga ega. Spenser o‘zining qarindoshlik va ijtimoiy tuzilishga oid tadqiqotlarida Osiyolik ko‘chmanchilar, musulmon oilasi hamda zamonaviy shahar jamiyati bilan bog‘liq turk qarindoshlik tizimini baholaydi. Shunga qaramay, jamiyat va oilaning tuzilishi qarindoshlik tizimiga nisbatan tezroq o‘zgaradi. Bu holat qirg‘iz va qozoq kabi ko‘chmanchi-qabilaviy turmush tarzini saqlab kelgan turkiy xalqlarning, Sovet va postsovet modernizatsiyasiga qaramay, o‘z qarindoshlik tizimini deyarli o‘zgartirmay saqlab qolganligini tushuntiradi.

Biroq, ba‘zi tillarda an’anaviy qarindoshlik tasnifi yo‘qolgan bo‘lsa-da, ushbu tushunchalar jamiyatda avvalgi ahamiyatini yo‘qotgan holatda ham leksik jihatdan saqlanib qoladi. Bu hodisa turk maqolida ham yaqqol aks etgan: **“Amca baba yarisidir”** [“Amaki – yarim otadir”], bu esa klassifikatsion tizimga xos **F = FB**



tenglamasini ifodalaydi. Zamonaviy turk qarindoshlik tizimi esa **F** va **FB** atamalarini terminologik jihatdan farqlaydi.

Ko‘chmanchi xalqlar tarixan Omaxa qarindoshlik tizimi bilan ajralib turgan. Ushbu tizimda bitta atama otaning va otaning akasi uchun, onaning va onaning singlisi uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, qarama-qarshi jinsdagi amakivachchalar aka-uka va opa-singillar bilan tenglashtirilgan. Biroq, ichki va tashqi omillar ta’sirida an’anaviy qarindoshlik tizimi o‘zgarishlarga uchragan. Ushbu o‘zgarishlarni tavsiflash hamda turkiy xalqlardagi qarindoshlik tizimidagi xilma-xillik sabablarini aniqlash uchun tizimning beshta mezoniga asoslangan tahlil talab etiladi:

1. Turkiy qarindoshlik tizimining asosiy mezonlari

Turkiy xalqlarning qarindoshlik munosabatlari bir hududga mansublik, umumiy nasab guruhi va bitta ko‘chada yashash kabi omillar bilan belgilanadi. Ushbu omillar jamiyat ichida ijtimoiy hamda iqtisodiy birdamlikni mustahkamlaydi. Qarindoshlik tizimi asosan nasl va nikoh munosabatlariga asoslansa-da, quyidagi besh mezon asosida tavsiflanadi:

1] ikki bog‘lanish;

2] o‘zaro kelishuv;

3] avlod;

4] yosh;

5] jins;

2. Bifuratsiya [Ajratish]

Turkiy xalqlarning qarindoshlik tizimi nasl-nasabga asoslangan bo‘lib, odatda otaning qarindoshlari uchun maxsus atamalar mavjud, onalik tomoni esa umumiyroq klassifikatsiya bilan ajratiladi. Masalan, qirg‘iz tilida **eje** [“otaning xolasi, katta opa-singil”], **aka** [“amakisi, katta akasi”], **ene** [“otaning buvisi”] kabi atamalar mavjud. Onaning qarindoshlari esa aniq atamalar bilan nomlanmaydi, balki boshqaruvchi shaxs tomonidan belgilangan terminlar bilan ifodalanadi, masalan: **tay-eje** [“onaning xolasi”], **tay-ake** [“onaning amakisi”], **tay-ene** [“onaning buvisi”].

Bu tafovut ikki nasab liniyasining ijtimoiy mavqeidagi nomutanosiblik natijasida yuzaga kelgan. Shu sababli, Yevrosiyo xalqlarining qarindoshlik tizimi, asosan, **patrilineal** [otaliq nasabga asoslangan] shaklda shakllanganligi kuzatiladi[6:75].

Turkiy qarindoshlik atamaları bo‘yicha tadqiqotlar uzoq yillar davomida rus va o‘zbek tilshunoslari tomonidan olib borilgan bo‘lib, ushbu masala turli ilmiy yo‘nalishlarda o‘rganilgan. Xususan, umumturkiy tillar doirasida, leksik-grammatik, morfologik, etnolingvistik hamda qiyosiy-tarixiy jihatdan turli tadqiqotlar amalga



oshirilgan. Garchi ushbu mavzu bo‘yicha tadqiqotlar tilshunoslar tomonidan olib borilgan bo‘lsa-da, ko‘pchilik ishlar umumturkologiyaga bag‘ishlangan yoki mavzuga bir tomonlama yondashilib, qarindoshlik atamalarining faqat ayrim jihatlari ochib berilgan. Ayniqsa, umumturkiy tillardagi qarindoshlik atamalarining qiyosiy tahliliga alohida e‘tibor qaratilgan.

Turkologiyada qarindoshlik atamalarini o‘rganish asosan ularni turkiy tillar o‘rtasida qiyoslash yo‘li bilan amalga oshirilgan. O‘zbek tilshunosligida ham ushbu masala bo‘yicha qator ilmiy ishlar bajarilgan. Xususan, I. Ismoilov o‘z monografiyasida o‘zbek tilidagi qarindoshlik terminlarining leksik-semantik xususiyatlarini tavsiflagan bo‘lib, unda qarindoshlik atamalarining umumiy tavsifi va kontekstdagi ma‘no tahlili keltirilgan. Shuningdek, M. Saidovanning nomzodlik dissertatsiyasida o‘zbek tili va uning shevalarida qo‘llanilayotgan, tarixan shakllangan va lingvistik jihatdan yetarlicha tadqiq qilinmagan qarindoshlik terminologiyasining qiyosiy-tarixiy genezisi Namangan shevalari misolida o‘rganilgan. Biroq ushbu tadqiqot faqat atamalarni lingvistik birlik sifatida ko‘rib chiqadi.

Aslida, turkiy tillarda qarindoshlik rishtalari va qarindoshlarning nomlanishi qadimiy tamoyillar asosida shakllangan. Bu borada tilshunos olimlar tomonidan o‘nlab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Masalan, L. P. Patapovning *“Qo‘ng‘irot o‘zbeklari o‘rtasidagi oilaviy munosabatlarga oid materiallar”* nomli ishi faqat tor doirada olib borilgan bo‘lsa, Narziyeva esa qon-qarindoshlik nomlarining faqat komponent tahlili ustida ishlagan.

O‘zbek tilshunosligida qarindoshlik atamaları masalasi qisman yoritilgan bo‘lib, asosan *ota, ona, bola, o‘g‘il, qiz, nabira* kabi qon-qarindoshlik atamalarining leksikologik tarixi bilan bog‘liq tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ayrim tadqiqotlarda o‘zbek tili va uning shevalaridagi qavm-qarindoshlik atamalarini chuqur o‘rganish zarurati ta‘kidlanadi va uning tilshunoslikdagi ahamiyati qayd etiladi. Biroq, o‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda olib borilgan ilmiy ishlarda ham mavzuga bir tomonlama yondashilgan bo‘lib, qarindoshlik atamalarining keng qamrovli, tizimli tahlili yetarli darajada amalga oshirilmagan.

O‘zbek xalqi tarixiy taraqqiyoti davomida yuz bergan iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlar tilning lug‘aviy tarkibiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Vaqt o‘tishi bilan ko‘plab qon-qarindoshlik atamaları eskirib, iste‘mol doirasidan chiqib ketgan, ayrimlari esa ma‘no jihatdan kengaygan yoki o‘zgarishga uchragan. O‘zbek xalqi turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlar bilan uzoq vaqt davomida birgalikda yashaganligi sababli, tilimiz murakkab tarixiy jarayon natijasida shakllangan. Shu



sababli, o‘zbek tilining lug‘at tarkibi, jumladan, qon-qarindoshlik atamaları ham boshqa tillarning leksik elementlarini o‘z ichiga olgan holda rivojlanib borgan. Shunga qaramay, o‘zbek tilidagi asosiy qon-qarindoshlik atamaları o‘zining mohiyatini saqlab qolgan, ularning semantik ko‘lamida esa ma‘lum darajada kengayish kuzatilgan.

Turkiy tillardagi qarindoshlik atamalarining kelib chiqishini uchta asosiy ildiz orqali izohlash mumkin: **qarindosh** [ota tomondan], **tai-tog‘iy** [ona tomondan] va **quda/qudag‘ay** [nikoh orqali bog‘langan qarindoshlar]. Vaqt o‘tishi bilan ushbu tasnif yanada aniqlashtirilib, quyidagi etimologik asosga ega bo‘lgan:

1. **Ota urug‘i** – qarindosh [*suyak, söök*].
2. **Ona urug‘i** – tag‘i.
3. **Nikoh orqali bog‘langan urug‘** – qain.

Ushbu tasnif turkiy tillardagi qarindoshlik tizimining tuzilishini yaxshiroq anglashga va uning rivojlanish bosqichlarini tavsiflashga yordam beradi.

Qadimiy turkiy xalqlarda ota urug‘i inson vujudining asosi sifatida qaralgan va "suyak" tushunchasi bilan ifodalangan. Ushbu urug‘ga mansub barcha shaxslar bir-biriga nisbatan **og‘ayni** [og‘a-ini] sanalgan, ular bir qonli qarindoshlar deb hisoblangan. Ota tomondan yaqin qarindosh bo‘lganlar o‘zaro yoshi kattasini **og‘a**, kichigini esa **ini** deb atagan. Ota tushunchasi turkiyzabon xalqlarda, xususan, o‘zbeklarda yuksak martabali nom sifatida qadrlanib kelgan. “**Suyak**” [*söök, syook*] so‘zi esa qadimda familiya tushunchasiga ekvivalent bo‘lib, avlodning nasl-nasabini ifodalagan.

O‘zbek tilidagi qarindoshlik atamaları kelib chiqishi va semantik xususiyatlariga ko‘ra uchta asosiy guruhga bo‘linadi:

- I. Qon-qarindoshlik atamaları.
- II. Nikohdan keyin yuzaga kelgan qarindoshlik atamaları.
- III. Yaqinlik nomlari:

1. Qon-qarindoshlik atamaları quyidagilarni o‘z ichiga oladi: ona, ota, opa, aka, uka, singil, xola, tog‘a, amma, amaki, buvi, buva, nabira va boshqalar.

2. Nikoh orqali paydo bo‘lgan qarindoshlik atamaları: er, xotin, kuyov, kelin, boja, pochcha, ovsin, qaynona, qaynota, qaynsingil, qaynog‘a, quda, quda xola, quda buva, o‘gay ota, o‘gay ona, o‘gay bola kabi atamalar.

3. **Yaqinlik nomlari** esa yuqoridagi ikki guruhdan farq qiluvchi va "tutingan" so‘zi bilan hosil qilingan atamalardir: **tutingan ota+m**, **tutingan ona+m**, **tutingan o‘g‘li+m** kabi.



Birinchi guruhga mansub atamalar o‘zaro juftlashgan holda **ko‘plik va jamlik** ma’nolarini ifodalaydi: **ota-bola, opa-singil, aka-uka, ota-ona, ota-bobo, amma-xola, tog‘a-jiyan** kabi. Shuningdek, ushbu atamalar affikslar yordamida yangi semantik ma’nolar kasb etishi va turli kontekstlarda kengayishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, qavm-qarindoshlik atamaları dunyo mamlakatlarida muhim kommunikativ vosita sifatida qo‘llanilib kelgan. Qarindoshlik terminlari lug‘at tarkibining eng universal qatlamlaridan biri hisoblanib, ularning mavjudligi barcha tillar uchun umumiy hodisadir. Biroq, har bir jamiyatda ushbu atamalarning shakllanishi va qo‘llanilishi turlicha bo‘lishi mumkin. Qarindoshlik tizimi asosan nasl va nikoh asosida shakllanadi, shu bilan birga, u quyidagi mezonlarga tayanadi: **o‘zaro kelishuv, avlod, yosh, jins**. Ushbu omillar qarindoshlik munosabatlarining tuzilishini belgilaydi. Qarindoshlik tizimlari o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, ular bir-biridan farqlanadi va har bir xalqning ijtimoiy tuzilishi, tarixiy rivojlanishi hamda madaniy xususiyatlariga muvofiq o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘ladi.

Shuni ta’kidlash joizki, qarindoshlik tushunchasini ifodalovchi leksemalar insoniyat tarixining juda qadimiy – ibtidoiy jamoa tuzumiga borib taqaladigan davr mahsuli bo‘lib, ular avlodlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalashga xizmat qilib kelgan.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ismoliyov.I.A. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari Toshkent. O‘zbekiston SSR “FAN” nashriyoti.1966.
2. Engels.F. Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi, Toshkent. 1956.
3. Mahmud Koshg‘ariy. “Devoni lug‘ati turk”, I-III tom, Toshkent.1960-1963.
4. Shoabdurahmonov.Sh. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari, Toshkent. 1962.
5. Покровская.Л.А. Термены родства в тюркских языках, В кн: “Историческое развитие лексики тюркских языков”. –М.,1961.
6. Nurullayeva K. Xitoy va turkiy tillarda qarindosh urug‘chilik atamalarining qiyosiy tahlili. Scientific and technical journal of Namangan Institute of Engeneering and technology.2020. – B. 75.